
1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni oldidan tumanimizdagi faxriy ustozlar va bemor muallimlar holidan xabar olindi

Tumanimizda ham ta'lif tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilib, kelajak avlodni ta'lif va tarbiyasiga munosib hissa qo'shgan faxriylar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yaqinlashib kelayotgan 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni oldidan tuman hokimi Bahodir Xoliqov, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri Shavkat Madaminov rahbarligida 2 nafar sohada fidokorona mehnat qilib, nafaqaga chiqqan faxriy o'qituvchilar holidan xabar olindi. Ustozlarga tuman hokimining tashakkurnomalari hamda bayram tabrige yetkazildi.

Mana shunday faxriylarning boy tajribasi bugun yosh pedagoglarning faoliyatini samarali tashkil etishda ta'lif va tarbiya jarayonlarini sifati va samaradorligini oshirishda hamisha zarur.

Rag'bat va yo'qlovdan mamnun ekanliklarini izhor qilgan ustozlar, soha ishiga rivoj tilab, yurtimizda faxriylarga ko'rsatilayotgan e'tibor uchun Davlatimiz rahbarini duo qildilar.

2023-09-29 14:00:19